



MEHRIBONLIK UYLARIDA PEDAGOGIK MUAMMOLARINING TADQIQ ETILISHI

Eshmurodova G.X.

Pedagogika fanlari nomzodi, dosent.

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Tayanch soʻzlar: etim bolalar, pedagogik tajriba, bolalar etimligi tushunchasining mohiyati va etimlik oqibatlari; Oʻzbekistonda bolalar etimligining vujudga kelish sabablari; muammoning bartaraf etilishi.

Ключевые слова: дети-сироты, педагогический опыт, сущность понятия детского сиротства и последствия сиротства; причины детского сиротства в Узбекистане; решение проблем.

Key words: orphans, pedagogical experience, the essence of the concept of child orphanhood and the consequences of orphanhood; causes of child orphanhood in Uzbekistan; problem solving.

Резюме: Maqolada Oʻzbekistonda bolalar etimligining mavjud holati va uni vujudga keltirgan omillarning ilmiy tahlili; bolalar etimligining oldini olishga qaratilgan tashkiliy-pedagogik ishlar tavsifi; bolalar etimligini bartaraf etish tizimining shakllanishi; etim bolalar taʼlim-tarbiya jarayonlarining ilmiy-pedagogik tahlili; pedagog-kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonidagi ilgʻor pedagogik tajribalar; bolalar etimligi, nazoratsizligi, huquqbuzarligini oldini olishga, taʼlim-tarbiyasini takomillashtirishga, ularni amaliy hayotga tayyorlash ishlari tahlili yoritilgan.

Резюме: В статье содержится научный анализ современного состояния детского сиротства в Узбекистане и факторов, вызвавших его; описание организационно-педагогической деятельности, направленной на профилактику детского сиротства; формирование системы ликвидации детского сиротства; научно-педагогический анализ образовательного процесса детей-сирот; передовой педагогический опыт в процессе подготовки, переподготовки и повышения квалификации педагогов; освещен анализ работы по профилактике сиротства, бесконтрольности, правонарушений детей, повышению их образования, подготовке их к практической жизни.

Summary: In the article, the current situation of child orphans in Uzbekistan and the scientific analysis of what caused it; description of organizational-pedagogical work focused on uncontrolled child orphanhood; how to achieve child orphanhood; scientific-pedagogical analysis of the processes of education of orphans; advanced pedagogical experiences in the process of training, retraining and qualification of teachers; analysis of orphanhood, uncontrollability, delinquency of children, improvement of education, preparation for practical life.



Markaziy Osiyo xonliklarida bolalar etimligi qadimdan urushlar, ocharchilik, yuqumli kasalliklar oqibati tarzida vujudga keldi. Qishloq va shahar gadoyvachchalari uchun maxsus muassasalar yo‘q, mavjud boshpanalar evropalik “tashlandiq”larga xizmat qilgan (2, 654). Rossiya istilosidan keyin bosqinchilikka qarshi kurashlarda 200.000 dan ortiq aholi qirib tashlandi (45, 39). Mazkur davrga xos turmush oqibatlari Sh.Rashidov (84, 79, 92, 98), H.H.Niyoziy (119, 45-46), S.Ayniy (18, 3), G‘.G‘ulom (124, 15) va boshqalarning asarlarida bayon etilgan.

Yangi tuzumga chorizmdan 120 mln. och aholi, vayrona mamlakat, 7 mln. dan ortiq etimlar meros qolib, ular orasida jinoyatchilik avj oldi. Ijtimoiy himoya tizimi yangi tuzumda rivojlanish arafasida turgan bo‘lsa, jahon miqyosida bu muammo 1948 yildagina rasman e’tirof etildi (38, 45). Ammo, 1920-yillarda och bolalarning uqubatlil hayot yo‘li go‘daklar jasadlari bilan qoplangan, ular orasida o‘lim 90-98 % ga etgan edi (27,6).

Shuningdek, o‘lkada yangi tuzumni zo‘rluk bilan o‘rnatish, milliy siyosatdagi xatolar, qatag‘onlar, fuqarolar urushi tufayli 1923 yildagi 30 mln. aholidan (bolalar-30 %) 1959 yilga kelib 24 mln. kishi qolib, kupaygan mahalliy etimlarga 1920-yillarda xalqning mehr-muhabbatigina boshpanoh bo‘ldi. Turkiston musulmonlarining 1-Konferensiyasida (24.05.1919) o‘lkada 95% musulmon va 5% ruslar yashayotganligi (110, 3), 1920 yilda esa etimlarning 10 % i mahalliy, 90 % i evropaliklar ekanligining (130, 49, 68) ta’kidlanishi shunday xulosa chiqarishga huquq beradi.

1920 yillardagi ocharchilik, vayronagarchilik bolalarni moddiy ta’minlash imkonini bermadi. Davlat yordam so‘rab, jamoatchilikka murojaat qildi. Joylardan sobiq BMTK Bolalar Komissiyasi nomiga kelgan javob xatlarida Nijniy Novgorod-1500, Vitebsk-5000, Sibir-10.000, Nijgorod-5000, Tver-1500, Ukraina 25.000, Orlovsk-4000, Turkiston-70.000 boqimsizlarni qabul qilish istagini bildirishgan (27, 23, 24). Ammo Yu.V.Gerbeevning bu fikrini arxiv hujjatlari tasdiqlamaydi. Ularda Moskva mahalliy shart-sharoit bilan hisoblashmay, Orenburg etimlarining barchasini Turkistonga ko‘chirishga ochiqdan-ochiq buyruq berganligi ta’kidlanadi (154, 1.) Aslida o‘lkada o‘n minglab mahalliy etimlar ro‘yxatga ham olinmagan edi. Shu boisdan, markazga ahvol yumshoqroq tushuntirilib (1922): “...Turkistonda ... panoh topgan qochoqlarning 50 % i Rossiyadan ... ekanligini inobatga olib, ... qo‘shimcha 50 % kredit ajratish talab qilinsin” (154, 151),-deb qaror qilindi.

Aftidan, mazkur qaror natijasiz qolgach, mahalliy hukumat qat’iyroq, norozilik bildiradi:- “...Maorif ehtiyojlarini ta’minlash og‘ir kechayapti. Buning ustiga ochlikka mahkum etilgan bolalarning 3/4 qismi (sobiq ittifoq bo‘yicha) uch yildan buyon Turkistonda saqlanmoqda. Shuning uchun o‘lka MTK Plenumi (1923) ushbu bolalarni ... zudlik bilan qaytarib yuborishni talab qiladi. Shundagina bo‘sh

o‘rinlarga mahalliy etimlarni joylashtirish imkoni tug‘iladi” (129, 649, 654). Ayni paytda berilayotgan yordamlarga dabdabali ravishda “Turkiston xalqlariga yordam!”, “Markaz-Turkistonga!” kabi “yorliq”lar yopishtirilayotgan edi.

Qat‘iy talablar ham markazga ta’sir etmadi, chunki, Rossiyaning o‘zida ham ahvol besh battar bo‘lib, hukumat xalqaro Qizil xoch tashkilotiga, jahon afkor ommasiga murojaat qilishga majbur bo‘ldi (27, 24). Ammo chet el xayriyalari bilan ahvolni o‘nglab bo‘lmas, qolaversa V.I.Leninning o‘zi ta’kidlaganidek: “... bu qadar ... ajoyib mamlakat - Evropada Rossiyadan boshqa qolgan emas” (51, 63) edi. Shuning uchun respublika hukumati talablarni yumshatishga majbur bo‘ldi: “etimlarning 90 % i ... kelgindilar, ...10 % i erli xalq bolalari ...ekanligini hisobga olib”, markazdan qo‘shimcha subsidiya so‘radi (1926) (154, 14). Demak, Turkiston ham, Ukraina ham etimlarni olish tashabbusi bilan chiqishmagan. Bu markazning qat‘iy ko‘rsatmasi bo‘lib, undan bo‘yin tovlash oqibatlari oynadek ravshan edi.

Milliy davlat chegaralanishidan (1924) keyin ham “O‘zbekiston” -etimlarning asosiy qo‘nalg‘asi bo‘lib qoldi. 1930-yillarda Qozog‘iston etimlari yopirilib kela boshladilar (228, 39). Etimlarning to‘xtovsiz “oqim”i sabablaridan yana biri 1920-yillar badiiy adabiyot va kino asarlarida “Toshkent – non shahri”, “O‘zbekiston-sahovatli o‘lka” tarzidagi tashviqotlar edi, jumladan, A.S.Neverovning “Toshkent-non shahri” asaridagi 12 yoshli Mishkaning ko‘rgan-kechirganlari misolida minglab rus etimlari yana poezdlarda Sharqqa stixiyali jo‘natilib, yo‘l-yo‘lakay yuqumli kasalliklar va ochlikdan halok bo‘lib ketdilar (110, 26). (“Toshkent — non shahri” (ruscha: Tashkent - gorod xlebniy) - 1968-yilda suratga olingan drama. Aleksandr Neverovning shu nomdagi hikoyasiga asoslangan. Volgabo‘yi, 1921-yil. Qurg‘oqchilik.

Ommaviy qahatchilik odamlarning sillasini quritgan. Hukumat esa yordam berishga qodir emas. Samara guberniyasida yashovchi Mixail Dodonov (Misha) ismli bola otasidan ayrilib, onasi va uch ikki nafar bola bilan qolgan. Ularni ochlikdan qutqarish uchun Misha o‘sha davrda mo‘l-ko‘lchiligi bilan tanilgan Toshkentga jo‘naydi. O‘zi bilan birga do‘sti Sergeyni ham etaklaydi. Yo‘lda Sergey tif kasaliga uchrab, bekatlardan birida qolib ketadi. Misha yo‘lda juda ko‘p qiyinchiliklarga uchraydi, biroq Toshkentga etib keladi. Bu erda u badavlat odamning bog‘ida dehqonchilik qiladi. Ishlab topgan pullarini va bir necha qop bug‘doyni olib, Misha uyiga qaytadi. Bu erda u ukalarining ochlikdan vafot etishganini ko‘radi.)

1930-yillar arafasida etimlikka barham berilganligi to‘g‘risida markazga sohta ma’lumotlar berildi, chunki, mamlakatdagi iqtisodiy va madaniy “yuksalish” dabdababozligi etimlar mavjudligini hazm qila olmas edi. Shuning uchun rasmiy



hujjatlarda etimlar soni 1941 yilgacha muttasil kamayib borganligi ko'rsatiladi, xolos.

Urush (1941) etimlar miqdori ko'payishining yana bir manbai bo'ldi. Dastlabki kunlardan oq "O'zbekiston chetdan 40.000 dan ortiq etimlarni qabul qilib oldi (105, 15). Ularning miqdori urush nihoyasigacha ortib bordi. Respublika bolalar uylari xodimlarining III kengashida (26.04.1941) muassasalardan 2.500 etim bolalar qochganligi ham ta'kidlangan edi (276, 24).

1930-yillar nihoyasida "O'zbekistonda bolalar nazoratsizligi avj oldi. Bunga 1938-1939 o'quv yilida 47.000 bola maktabga jalb etilmaganligi, 68.000 bola maktabni tashlab ketganligi sabab bo'lgan edi (83, 99).

Shunday qilib, tadqiq etilayotgan 1917-1941 yillarda respublikamiz hududlarida bolalar etimligini vujudga keltirgan manbalarni quyidagicha tasvirlash mumkin: (1-ilova).

Tadqiq etilayotgan davrda (1917-1941 yy.) "O'zbekistonda bolalar etimligidek dahshatli xavfni markazlashgan boshqaruv tizimisiz bartaraf etish mushkul edi. Aslida, o'lkada 1917 yilgacha ham etimlikka qarshi kurash tadbirlari amalga oshirilgan. chunonchi, Buxoro, Farg'ona, Xorazm (1904). Qoraqalpog'iston (1918) (103,22) va boshqa viloyatlarda "Xayriya jamiyatlari" tashkil etilgan (40, 13). Ammo, bunday kichik tadbirlar bilan muammoni bartaraf etib bo'lmas edi.

O'lka Maorif Xalq Komissarligi tarkibida ijtimoiy tarbiya bo'limi tashkil etilgach (1918), etimlarni ijtimoiy himoya etish tadbirlari boshlandi. Bolalar uylari va maktab-kommunal bo'limlari etimlikka qarshi kurash tizimidagi ilk xalqalardan edi. Shunday qilib, nihoyatda dolzarb muammoni bartaraf etishga kirishildi: Turkiston madaniyat, maorif vakillari kengashi qarori (1919) bilan maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, mehnat komissarliklararo komissiya tashkil etildi (142, 67). Komissiya qish oldidan darbadar bolalarga boshpana topib berish bilan shug'ullandi. "Balog'atga etmaganlar Komissiyasi" 1919 yil, "Bolalar hayotini yaxshilash komissiyasi", "Yoshlarga yordam berish jamiyati", "Bolalarning do'sti jamiyati" kabi davlat va jamoatchilik tashkilotlari etimlarni to'plash bilan birga ularning kelajagi uchun ham kurashdilar (122, 16).

Balog'atga etmaganlar Komissiyasi-balog'atga etmagan huquqbuzarlar ishini ko'rib chiquvchi sud muassasasi emas, balki tarbiyalovchi tashkilot edi (27,8,9). Balog'atga etmaganlarni sud qilish bekor qilingach (64, 9), bolalar huquqbuzarligi Balog'atga etmaganlar Komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladigan bo'ldi. Bolalar boshpanalari, etimxonalar, internatlarga aylantirilib, uning tasarrufiga o'tkazildi. Ammo, taqchilliklar tufayli u 1935 yilda tugatildi (27, 10).

Etimlikka qarshi kurash tizimi bosqichma-bosqich yaratildi: "Bolalar oziq-ovqatlar fondi" (1918) (64, 14), Bolalarni himoya qilish davlat tashkiloti ta'sis

etilgach (4.02.1919), bolalar turmushi o'nglana bordi. etimlarga moddiy, tibbiy yordam berish, ko'chirish vazifalari shu tashkilotlar zimmasida edi.

Muammoning echimi, avvalo, moddiy ta'minotga bog'liq edi. Shu boisdan markaz "Bolalarni bepul oziq-ovqatlar bilan ta'minlash haqida" (17.05.1919), "Bolalarni bepul oziq-ovqat bilan ta'minlashni tashkil etish haqida" (15.06.1920) qarorlar qabul qilib, bolalar oshxonalari tarmog'ini kengaytirdi. Xayriyalarning 25 %i o'ta muhtoj bolalarga yordam fondiga o'tkazildi. "Bolalarni ovqatlantirish to'g'risida"gi dekret (22.07.1921) bu ishlarni yanada kuchaytirdi (64, 344, 345). Moddiy ta'minot vazifasi "Bolalikni himoya qilish Davlat Kengashi"-(1919) zimmasiga yuklatildi. Bolalikni himoya qiluvchi muassasalar xodimlari s'ezdlari (1918, 1924, 1930) kelajak vazifalarni belgilab berdi (79, 683). Bu borada sobiq BMIK qoshidagi "Bolalar hayotini yaxshilash Komissiyasi", "Bolalar Sosial inspeksiyasi" (BSI) (1921) faol ko'maklashdilar.

Etimlikka qarshi kurash tamoyillari ishlab chiqilib (1918), maorif tashkilotlariga yuborildi. Unda bu vazifalar oson bo'lmasada, barcha xarajatlar davlat uchun xavfli elementlarning kamayishi hisobiga ortig'i bilan qoplanishi ta'kidlagan edi (43, 17). Ushbu ko'rsatma asosida markaz "Bolalar etimligiga qarshi kurash tadbirlari to'g'risida" ilk jiddiy qarorni qabul qildi (64, 348). Muammoni to'la bartaraf etishga esa markazning "Bolalar etimligi va nazoratsizligiga barham berish to'g'risida"gi qaroridan (31.05.1935) so'ng kirishildi. Muassasalardan etimlarning qochib ketishiga (70-80 %) qarshi choralar belgilandi (87, 18). Ammo qo'qqisdan boshlangan urush (1941) bolalar etimligini yanada kuchaytirgan edi.

Shunday qilib, davlat, maorif va jamoatchilik tashkilotlari yagona maqsad atrofida birlashib, qiyin, ammo o'ta muhim ishni amalga oshirdilar. Bu jarayonda sinalmagan yo'llar bosib o'tildi. Xatolardan saboq chiqarilib, zarur nazariy va amaliy-pedagogik tajribalar to'plandi. etimlikka qarshi kurash sohasida jahon pedagogik amaliyotida sinalmagan tamoyillarga asos solindi, yangicha echim va usullar kashf etildi. Tubdan yangicha pedagogik tafakkur asoslariga qurilgan maxsus tizim- etimlikni bartaraf etish va etimlarga ta'lim-tarbiya beruvchi internatlar tarmog'i vujudga keldi.

Oqibatda bolalar nazoratsizligi va jinoyatchiligining oldi olindi. Ushbu tizim quyidagi bosqichlardan iborat edi:

1) qabul manzili-ushlab keltirilgan etimlarni o'rganib (2-3 kun), ilk ijtimoiy, tibbiy, ruhiy-pedagogik yordam ko'rsatib, keyingi bosqich muassasalarga yo'llovchi muassasa;

2) kuzatish-tarqatish manzili (yoki kollektor) - ashaddiy huquqbuzar etimlarni ruhiy-pedagogik va fiziologik jihatdan o'rganuvchi (2-8 hafta) muassasa (64, 350) bo'lib, amalda uning ikki turi mavjud edi:

a) etimlarni shoshilinch tarzda tabaqalashtiruvchi va



b) yuksak malaka sohiblari ishlovchi laboratoriya tarzidagi muassasa. Keyingi muassasa turiga prof. K.L.Xorvat boshchiligidagi Kronjetter, Shel'mes, Pyutner kabi muhojir-olimlar jamoasi (pedagog, ruhshunos, vrach, faylasuf, sosiolog, huquqshunos) o'lka MXKga tavsiya etgan (1920) loyihani kiritish mumkin (143, 11, 15, 33) (3-ilova).

K.L.Xorvat loyihasini 1920-yillarda amalga oshirish mushkul edi. chunki:

a) etimlar ko'pmillatli bo'lib, muallif taklificha, ularni "evropalik" va "tuzemes"larga ajratish, mayda millatlar milliy xususiyatlariga e'tiborsiz qarash xunuk oqibatlariga olib kelishi;

b) har bir millat vakillari uchun alohida tabaqalangan muassasalar ochishga imkon yo'q edi. Ammo olimning etimlar aqliy qobiliyatlarini testlar vositasida aniqlashga oid taklifi 1920-yillarda qattiq qoralangan bo'lsada, hozir pedagogik amaliyotda keng qo'llanmoqda.

v) bolalar uylari (internatlar)-etimlarni kuzatuv-tarqatish manzilidan qabul qilib, ularga to'liq moddiy ta'minot zahirida umumiy ta'lim va ijtimoiy tarbiya beruvchi muassasa bo'lib, o'ttizdan ortiq nomlarda faoliyat ko'rsatgan. Ammo, 1935 yilgacha mazkur atamalar orasidagi tafovutlar aniqlab berilmagan. Ular jumlasiga maktabgacha va maktab yoshidagi normal, tarbiyasi og'ir, bemor bolalar uylari, o'smirlar uyi, kashshoflar uyi, kommuna, kommunalar uyi, bolalar kommunasi, mehnat uyi, koloniya, boshpana, tunash joyi va boshqalarni kiritish mumkin.

g) qochoqlar uyi etimlarga ixtiyoriy tunash, ovqatlanish va ketib qolish imkoni yaratilgan, ammo jiddiy o'rganilmay qolgan muassasa turi. Unda pedagogik nazorat, o'quv-tarbiya ishlari o'yin tarzida bo'lib, maqsad etimlar hayotini saqlab olish va adaptasiya o'yg'otishga qaratilgan (200, 16).

d) maktabli bolalar uyi - 8-16 yoshli boqimsizlarga ta'lim-tarbiya beruvchi muassasa.

Bunday turfa xil nomlar kishi tafakkurini chalkashtirib yuborar, "Maydoncha", "Ovqatlanish manzili" kabilar ham shular jumlasidan edi. Shuningdek, "Bolalar uyi" atamasini, bordi-yu, unda mutlaq etim bolalargina emas, balki ota-onasi hayot va 16 yoshdan oshganlar ham tarbiyalanayotgan bo'lsa, qanday tushunish mumkin edi?

Yillar o'tib borar, "internat" atamasiga aniqlik kiritishga urinishlar davom etardi. Shu jarayonda bolalar uylarini tartibga solish va maktablar bilan qo'shish ehtiyoji kuchaydi. Va alqissa, 1935 yilda hukumat internatlarning quyidagi turlarini belgilab berdi:

- 1) qabulxonalar (IIXK);
- 2) normal bolalar uylari (MXK);
- 3) bemor bolalar uylari (SSXK);

- 4) nogiron bolalar uylari (STXK);
- 5) niqobxonalar va koloniyalar (IIXK).

Bunday aniqliklar o'n besh yil avval-internatlar endigina usullana boshlagan davrda kiritilishi zarur edi. Shu orada uning turli modifikatsiyalari ham paydo bo'ldi: bolalar bog'chalari (yarim internatlar), (MXK) bolalar maydonchalari (MXK); tunash joylari (IIXK); go'daklar uyi (tashlandiq yoki boquvchisiz, 0-3 yosh. (SSXK); bolalar xonasi - ishlab chiqarishda band bo'lgan onalar uchun; boshpana (priyut) (85, 654)-tashlandiq bolalar tarbiya muassasasi (142, 25); o'smirlar uyi (MXK)-13-18 yoshli etimlar muassasasi; qochoqlar uyi (200, 16); yotoqxona-ikki guruh (60 etim)ga xizmat qiluvchi maktabsiz muassasa; bolalar o'chog'i haftasiga 6 kun davomida (8 soatdan) ishlab chiqarishda band bo'lgan ota-onalar farzandlarini tarbiyalovchi muassasa; qiz bolalar mehnat uylari (profilaktoriy) bolalar shaharchasi, niqobxonalar (koloniya, reformatorium)- IIXK balog'atga etmagan tarbiyasi og'ir etimlar muassasasi (147, 47) va b...

Arxiv hujjatlarida 1924 yilgacha o'lkada uch bosqichli koloniya tashkil etilganligi qayd etilgan:

- 1-bosqichga tasodifan qo'lg'a tushgan jinoyatchi-etimlar;
- 2-bosqichga tarbiyaviy ta'sir samara bermaydiganlar;
- 3-bosqichga ashaddiy jinoyatchi-etimlar yuborilgan.

Chegaralangan hududda qattiq rejim ostida ishlab chiqarish mehnatida ishtirok etish koloniya hayoti mazmunini tashkil etardi. Shuning uchun hukumat qarori (1935) bilan koloniyalarda hunarmandchilik tsexlari ochildi (276, 36). Keyinchalik, uch guruh (60 etim)ga mo'ljallangan uy-koloniya asosiy muassasa bo'lib qoldi (180, 117).

Reformatorium-tarbiyaviy ta'sirga berilmaydigan, KOMONES qarori bilan ozodlikdan mahrum etilgan etimlar muassasasi (IIXK) (199, 60). Unda tarbiyalanuvchilar sinovdagi, jarimadagi, savdoyi turlarga bo'lingan. (79, 680).

Tajriba-namuna tayanch internat (kommuna) lari yagona boshqaruv tizimiga ega bo'lib, maktab yoshidagi bolalar uyi, 1-11 bosqich maktablaridan tashkil topgan. Toshkentda Almaiy, K.Libknext (1918), Cherishevskiy (1919) nomli shunday muassasalar ochildi (42, 22, 23).

Etim bolalar muassasalari turlariga oid beaded tavsiflar orasida quyidagi uch omil e'tiborni tortadi:

- a) internat muassasalarining hayot sinovlaridan dadil o'tib, bizgacha etib kelgan turlarini tadqiq etish;
- b) o'tmishda bolalar etimligiga qarshi kurash jarayonida ularning qaysi biri ko'proq ahamiyat kasb etganligini aniqlash;
- v) uzoq vaqt davom etgan tortishuvli muammo-internat va bolalar uyi qanday muassasa ekanligi haqida aniq bir to'xtamga kelish lozim. Mazkur muammolardan



birinchisi - bolalar uylari, internatlar, kommunalarga oid masalalarni tadqiq etishni eng to'g'ri yo'l deb tanladik (1-bob, 2-bandga qarang). Hozir esa 1917-1941 yillarda bolalar etimligini bartaraf etish tadbirlari haqida so'z yuritamiz.

Ixtiyorimizdagi ashyolar ko'rsatmoqdaki, o'lkada bolalar etimligini bartaraf etishga intilish tarixan mavjud bo'lgan. Buyuk ajdodlarimiz ma'naviyati azaldan etim va g'ariblarga mehr-muruvvat ruhi bilan sug'orilgan (128,34). Qur'on va hadislarda shunday ruh mavjud edi. Shuningdek, turkistonlik ziyolilar ham "Jamiyati xayriya" (1872), xudoyixonalar, miskinlar uylari, tunash joylari, etimxonalar ochganlar. Ammo, mazkur tadbirlarga davlat mablag' ajratmas edi. Haqiqiy ahvol esa N.A.Kuropatkinning: "Biz 50 yil davomida tuzemeslarni taraqqiyotdan, maktabdan... chetlab turdik" (22, 13), degan fikrida o'z aksini topgan.

Etimlar davlat panohiga olingach (1917), KOMONES (1918), "Bolalikni himoya qilish kengashi" (1919), "Bolalar hayotini yaxshilash Komissiyasi" (1921) hamkorlikda shoshilinch tarzda mavjud internatlar tarmog'ini kengaytira boshladilar (66, 89). Etimlar oqimini to'xtatib qolish maqsadida sanitariya tekshiruv manzillari, Keles temir yo'l bekatida ajratuvchi qabulxonalar, qabul tarqatish manzillari tashkil etildi. 1924 yilga kelib, qabulxonalar soni ettitaga etdi. Ammo ular ehtiyojni qondirmas, etimlar, insondek yashash uchun kurashib halok bo'layotgan edilar (153, 18). ahvolni bartaraf etish maqsadida "Ocharchilikka qarshi Turkiston markaziy komissiyasi" (1919), "Och bolalarga yordam komissiyasi", "Ochlik oqibatlariga qarshi kurash komissiyasi" (1922) tuzildi. Samara, Piter, Moskva shaharlaridan tashkiliy va stixiyali ravishda kelgan 3647 bola (1920) Avliyoota, Aris, Bayramali, Golodniy step, Jizzax, Kazalinsk, Perovsk, O'sh, Turkiston shaharlariga tarqatildi. etimlar bilan to'la yana olti sanitar poezdi Samarqandga kelayotgan (1922), shaharlarda esa 16.649 (7760 evropalik) etimlar mavjud (152,4), 19.885 mahalliy boqimsizlar ham hisobga olingan edi. Qaltis vaziyat o'lkada xalq maorifi bo'limlari mudirlari 1 se'zdida tahlil etilib (1920), MXK qoshida "Bolalarni himoya qilish bo'limi" (51,101-103), yirik olti shaharda 1265 o'rinli 25 qabul va tarqatish manzillari, 1500 o'rinli oshxonalar ochishga qaror qilinsada (110, 12), bajarilmadi.

KOMONES qarori bilan (1921) temir yo'l bekatlarida qo'shimcha qabulxonalar ochildi. Toshkent ko'chalari kelgindilarga to'lib ketmasligi uchun markazdan jihozlar, MXKdan 1 mld. so'm qarz olinib, 14 yoshdan oshgan etimlar ishga joylashtirildi. Bolalar milisiyasi (BM), Bolalar sosial inspeksiya (BSI) tashkil etilib (1920), o'lkada etimlar harakatini kuzatish yo'lga qo'yildi (147, 62). Shaharlarda 16 yoshgacha bo'lgan etimlar bepul oziq-ovqat bilan ta'minlandi. MXK va SSXK ovqatlantirish mezonlarini ishlab chiqdilar. Bu borada KOMONES ning 34, BSIning 31 bo'limlari faol ishladilar (150, 23).

Oqibatda o'lkada 1917 yilda 500-600 etimlar qayd etilgan bo'lsa, 1921 yilda 40.000, 1922 yilda 36.534 (evropaliklar-16.649), 1923 yilda 35.745 (shundan qochoqlar-13.060) davlat panohiga olingan edi (150, 73). (6-ilova, 1-jadval).

1920-yillarda ba'zi olimlar mehnatkashlarning etim bolalari irsiy belgilariga ko'ra darbadarlikka mahkum va axloqiy nuqsonli bo'lalilar (110,18), deb bashorat qilgan edilar. Ammo hayot bu fikrlarni tasdiqlamadi. Shuningdek etimlikka qarshi kurash ishlari 1923 yildan rejali izga tushib (27,31) pedagogik jarayonlar chuqurlashdi.

Milliy-davlat chegaralanishi o'tkazilganida (1924) respublika hududidagi qabulxonalarda 5000 etim bo'lib, yana 4600 etim vataniga jo'natilgan, 760 bola internatlarga joylashtirilgan (183,62). Ammo, mahalliy etimlar hamon e'tibordan chetda edi. Turkmaniston bilan chegaradosh hududlarda "Murgob flotiliyasi" deb nomlangan och, yalong'och, bemor 10.000 Povolje etimlari dahshat solib yurar, farg'onalik etimlar ham jinoyatchilik olamiga yaqinlashib qolgan edilar. Shu boisdan markazdan o'lkani kelgindi etim bolalardan xalos qilish so'raldi (190, 192). Talablar javobsiz qolavergach, mahalliy hukumat "Bolalar etimligiga qarshi kurash choralari haqida" qaror (12.08.1926) qabul qilib, etimlarni ishga va o'qishga yuborishni kuchaytirdi (79,194). MXK etimlikka qarshi kurash rejasini ishlab chiqdi (197, 20). MBK Plenumi (1926) rejani bajarish tadbirlarini belgiladi. Uning Samarqandda o'tkazilgan kengashida (30.09.1926) mavjud kamchiliklar ochib tashlanib, asosiy e'tibor qishloqqa qaratildi (195, 178) (4-ilovaga qarang).

MXK etimlikni 50 % ga qisqartirish tashabbusi (1926) bilan chiqqanligi navbatdagi dabdababozlik edi: 1926 yilning yanvar-fevral oylarida shaharlarda 400 etim talonchilik qilib yurar, 1233 etim boshpanasiz edi. Bu holga chek qo'yish maqsadida qo'shni respublikalar bilan hamkorlik o'rnatilib, FZU va ish o'rinlarining 10 %i etimlarga ajratildi. Profilaktika tadbirlar (tibbiy-pedagogik, xalq sudiga va ma'muriy organlarga topshirish) joriy etildi (196, 156, 157). Sohada amaliy ishlar kuchaydi. Muammoga bag'ishlangan 11 Respublika kengashi (1928) ishlarga yakun yasab, ijobiy o'zgarishlarni qayd etdi (204, 27). Shunday qilib, 1924 yilda faqat kelgindi-etimlar 10.025 nafar bo'lgan bo'lsa, 1925 yilda 6233 (183,62), 1926 yilda 5.000 (90 %i evropalik) (197, 84), 1927 yilda 4.000 (196, 72, 73), 1928 yilda 5000 nafarni tashkil etib, mutlaq kamaygan edi (6-ilova, 2-jadval).

1924-1928 yillarda etimlarni joylashtirish chigallashdi. Mahalliy rahbarlar MBK ko'rsatmalariga zid qarorlar qabul qilar, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryoda BK yuzaki ishlar, uezdlar bilan aloqa uzilib qolgan, qabulxonalar internatlarga eng tartibsiz etimlarni yuborar edi. Ularda joy taqchilligidan etimlarni joylashtirishga ustuvor tus berilib, 1923-24 o'quv yilida internatlarga 1.249, maktablar va o'quv yurtlariga 2300 etim yuborildi. 1926 yilda ko'chalardan 3598



etim ushlanib, ulardan ishga 855, homiylikka 365, vataniga 583 nafari yuborildi (196, 11, 12). Toshkentda “Qizil tong” qabul manzili, Chernyaev va Niyozboshi bog‘larida muvaqqat lagerlar ochildi; to‘garaklar, bolalar uyushmalari yo‘lga qo‘yildi. Qayta tarbiyalangan yuzlab etimlar muassasalarga yuborib turildi. Bu ishlarda “Bolalar Hayotini yaxshilash komissiyasi” jonbozlik ko‘rsatdi.

Olg‘a harakat qilish uchun 1929-1934 yillar tajribalar etarli bo‘lgan davr bo‘ldi: chetdan keluvchi etimlar miqdori kamaydi, ularni joylashtirish muammosi ustuvorlashdi. etimlikka qarshi kurashning markaz tavsiya etgan uch yillik rejasini (1928-1930) amalga oshirishda “etimlikka qarshi kurash shtabi” (Yu.Oxunboboev) jonbozlik ko‘rsatdi. (224,4). Shtab o‘z oldiga jamoatchilik yordamida etimlikni mutlaq tugatish vazifasini qo‘ygan edi. Ammo u MBK bilan bir xil vazifani bajarmoqda, degan fikrga ko‘ra tugatildi (20.09.1931) (224,5,11).

Rossiya va Qozog‘istonda yuz bergan qurg‘oqchilik tufayli (1932) “O‘zbekiston yana etimlar qarorgohiga aylandi. Yuz bergan ahvol tahlil etilib, 1800 etim panoh topgan 92 yotoqxona va tunash joylari kengaytirildi (223, 128, 152, 161, 178). 1932-1933 yillardagi sun‘iy ocharchilik etimlikni yanada kuchaytirgach, MXK qarori bilan (13.04.1933) shahar va qishloqlarda 17 qabulxonona va oromgohlar ochildi. Shunday qilib, 1924 yildagi 7 qabulxonona o‘rniga 1934 yilda 24 qabulxonona 2980, BSI bo‘limlari va favqulotda oromgohlarga esa 605 etim jalb etildi (216, 6,7,9).

Shunday qilib, 1929 yil boshida respublikada 500 etim to‘plangan bo‘lsa, ularning miqdori 1932 yilda 1800 (223, 128, 152), 1933 yilda 3475 (224, 33), 1934 yilda 3585 nafarga etgan edi (239, 20, 30). 1930-1931 yillarda markazga muammo bartaraf etilganligi haqida ma‘lumot berilganligi tufayli, ko‘cha etimlariga oid ma‘lumotlar manbalarda uchramaydi. Shunga ko‘ra manzara quyidagicha edi (6-ilova,3-jadval).

1935-1941 yillarda “Bolalar etimligi va nazoratsizligiga barham berish to‘g‘risida”gi davlat qarori (31.05.1935) asosida keng qamrovli ishlar olib borildi. Qaror asosida respublikada maxsus reja ishlab chiqilib (1935), vazifalar davlat va jamoatchilik tashkilotlariaro taqsimlab berildi (231, 59).

1935 yil boshida Rossiya va Qozog‘iston etimlarining yopirilib kelishi qat‘iy choralar ko‘rishni taqozo etardi. Shu boisdan davlat va jamoatchilik tashkilotlari hamkorlikda ish yuritdi (131,55): birgina Toshkent shahrida 4832, respublika bo‘yicha esa 5832 etimlarni to‘plab, bolalar etimligiga chek qo‘yildi deb, hisobot berildi. Ammo, shu yili rejadagi 24.800 o‘rniga (240,-46) 23.100 etimlar internatlarga jalb etilgan (234,14), 12 qabulxonona o‘rniga 5, 4 koloniya o‘rniga 3 ta muassasa ochilgan edi. Qabulxonalarda 5000 etim tibbiy-pedagogik “ishlov”dan o‘tkazildi. Ishga va o‘qishga 1646, ota-onalarga 536, kasalxonalarga

esa 1062 oʻrniga 18 etim joylashtirilgan edi (237, 114). Shuningdek, muassasalar faoliyatiga metodik rahbarlik kuchaytirilib, IXXK tasarrufiga oʻtkazildi.

1936 yilda qabulxonalardagi 5828 (233,21), 1937 yilda 7463 (238,4), 1938 yilda 6649, 1939 yilda 7058 (265,62), 1940 yilda 1847 etim bolalar turli sohalariga joylashtirilgan boʻlsa (280, 49), 1941 yilda 14 qabulxonalardagi 3664 koʻcha bolalari safiga 13.098 “urush bolalari” ham qoʻshilgan edi (119,100): (6-ilova, 4-jadval).

1935-1941 yillarda tarmoqda jiddiy ijobiy oʻzgarishlar ham sodir boʻldi. MXK va SSXK vakillaridan iborat saralash komissiyalari etimlarni tibbiy-pedagogik xususiyatlariga koʻra saralab, tarqatib turdi. Rossiya, Qirgʻiziston va Qozogʻistondan kelayotgan etimlarga (1937) Toshkent shoxbekatida toʻxtab oʻtuvchi bolali onalar va fuqarolarga korxonalararo yordam kassasi hisobidan yordam koʻrsatildi (247, 27). Birgina 1936 yilda 25.000 etim tibbiy koʻrikdan oʻtkazildi. Muassasalarga 2994, ishga 870, oʻqishga 1429, ota-onalariga 228, oilalarga 27 etim tarqatildi. Oziq-ovqat sanoati tarmoqlariga 195 etim ishga joylashtirilgan boʻlib, qochganlar 646 nafarni tashkil etgan edi (233,21).

Respublika bolalar uylari xodimlarining II kengashi qaroriga (1937) koʻra korxonalar va xoʻjaliklar bilan shartnomalar tuzilib, ishga yoʻllanayotgan etimlar kiyim-kechaklar bilan taʼminlandi. Yoshlar tashkiloti ularni kasb-hunarga yoʻllab turdi (245, 34). Ammo, mayda hunarmandlar, kosiblar homiyiligiga berilgan etimlar orasida salbiy hollar yuz berayotgan edi. Mazkur ahvol respublika bolalar uylari direktorlarining III kengashida (1939) koʻrib chiqilib, zarur tadbirlar belgilandi (266, 38, 82). Ishga joylashtirishda etimlarning qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olish haqida hukumat maxsus buyruq chiqardi (1865, 25.-05.1941) (256, 155). Biroq oldinda yanada dahshatli oqim-urush etimlarining “Oʻzbekistonga yurishi eshik qoqib turar, MXK esa 1941-42 oʻquv yilida bolalar etimligiga toʻla barham berish rejasini tuzayotgan edi (276,24). Shunday qilib, 1917-1941 yillarda “Oʻzbekistonda etim bolalar miqdori quyidagicha edi: (6-ilova, 5-jadval).

Etim bolalar oqimiga chek qoʻyish, asosan, transportda ularning harakatini toʻxtatishga bogʻliq edi. Shuning uchun markaz qarori (№9165, I.XI.1920) bilan temir yoʻl shoxbekatlarida, pristanlarda BSI boʻlimlari, qabulxonalar, (144,62) 1924-1928 yillarda esa yana qoʻshimcha qabul manzillari tashkil etildi. Chegara tekshiruv, toʻsiqlar oʻrnatish yoʻlga qoʻyildi. MXK qarori (№20, 501, 3.09.1939) bilan tashkil etilgan Bolalar Adreslar Stoli 1924-1934 yillarda aloqasi uzilib qolgan minglab ota-onalar va bolalarga amaliy yordam koʻrsatdi. (234,79).

Shunga qaramasdan, Mirzachoʻl, Sirdaryo, Toshkent temir yoʻl tarmoqlarida 600 ga yaqin etim bolalar daydib yurishgan (1931) (224,34). Shu boisdan, Andijon, Kogon, Samarqand, Ursat'evsk va Qoʻqonda qochoqlar xonalari ochildi.



Tusuvchi otryadlar tashkil etildi (228,47,48). Poezdlarga etimlarning chiqishi ta'qiqlandi. Vagon qabulxonalar maorif bo'limlari ixtiyoriga berildi. Shunday qilib, 1934 yilda temir yo'l transportidan 2000, temir yo'l bo'ylab daydib yurgan 3000 etim ushlansada, ularning 1000 nafari muassasalarga tarqatilgan edi, xalos (228,54).

1935-1941 yillarda temir yo'l tarmog'iga etimlar katta xavf sola boshlagan edilar. 1935 yilda vagon-qabulxonalardagi (4) etimlarning 80% i qochoqlar bo'lib, ular yuk va yo'lovchilar tashishga halaqit berar, bekatlarda tilanchilik, oldi-sotdi qilib yurardi. O'rta Osiyo temir yo'l boshqarmasining yig'ilishida (1935) qayd etilishicha, ko'p hollarda poezdlarning ag'anab ketish xavfi tug'ilgan. Shu boisdan temir yo'l bekatlarida bolalikni himoya qilish postlari, shtatsiz qabulxonalar ochildi (231,2,3). Ammo, qochish 1936 yildagi 646 nafar o'rniga (238,1) 1941 yilda 2500 nafarga etgan edi (276,24). Birgina Samarqand (№4) bolalar uyi tarbiyalanuvchisi Lapkov 1939 yilning aprelegacha 39 marta qochgan. Bunday sayyor etimlar qishda qaytib kelar, yozda esa Kislovodsk, Qrim kurortlariga ketardilar (276,31). Faqat keskin choralar tufayligina qochish ko'rsatkichlari kamaydi, xalos.

Xulosa. 1917-1941 yillarda etimlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurash ishlari to'xtovsiz davom etdi. Bu sohaga KOMONES boshchilik qildi. U 1922 yildayoq 16 muassasaga 538 ijtimoiy xavfli etimni jalb etdi (172,70). 1923 yilda MXK ixtiyoridagi qamoqxonalar yosh jinoyatchilarga to'lib ketdi, KOMONES faoliyati esa binolar taqchilligidan to'xtab qoldi (150, 18). Toshkent shahrida ochiqcha qurolli bezorilik, To'raqo'rg'onda bachchabozlik avj olib, ularni qo'lga tushirish mushkul edi (276,24). MBK qarori bilan bezorilardan qurollar tortib olinib, kech soat 9-00 dan so'ng ularning xarakati ta'qiqlandi. etim bachchalar maxsus internatga jalb etildi. Samarqand va Toshkentdagi daydi bolalar to'dalarga barham berildi. (65,61).

KOMONES ning viloyat bo'limlarida 1925 yilda 972 (712 o'g'irlik, 194 jinsiy buzuqlik, 17 qalloblik, 9 qurol saqlash, 7 qotillik, o't qo'yish, 8 giyohvandlik va b..), 1927 yilda 3275 huquqbuzarlik qayd etilib, jinoyatlarning 75% ni evropaliklar sodir etganlar (196,157). Ular uchun maxsus internatlar, mehnat artellari tashkil etilib, tarbiyaviy ta'sir vositalari qo'llanildi.

1929-1934 yillarda etimlar jinoyatchiligi davlat va jamoatchilik tashkilotlarining yaqindan hamkorligi tufayli qisman kamaydi. Bu borada umumiy majburiy ta'limning joriy etilishi, maktabdan tashqari muassasalar rivoji, bolalar hayotiga oid teatr, kino san'ati asarlari, ommaviy tashviqotlar yordam berdi. Jumladan, 1920-yillarda zo'r qiziqish o'yg'otgan "Maktab yo'li" p'esasida ko'cha bolalari bilan uchrashuv qiziqarli bayon etilgan. Shunga qaramasdan, 1930-yillar boshida etimlarning mayda bezoriligi kuchaydi. Hatto, Kogon, Qo'qon, Cho'st



nohiyalarida etimlar qotilligi ham sodir bo'lgan. (123,49). Samarqandda 58 etim-daydilar bolalar shaharchasi, internatlar va bozor maydonini qatog'on qilgan (228,59,60). Toshkent shahar milisiya bo'limlarida 500 etim huquqbuzarlar mudhish sharoitlarda yarim yalang'och, pedagog-tarbiyachilarsiz ushlab turilgan (258,57). Mazkur hol MBK va BDJ favqulotda yig'ilishida (1933) ko'rib chiqilib, zarur choralar belgilangan edi.

ADABIYOTLAR:

1. Quvondiqov K. O'zbekistonda maktabdan tashqari bolalar tarbiya muassasalari. Monografiya (1917-1970 yy.). Toshkent, "O'qituvchi", 1982.-144 b. 16, 27-b.
2. Qo'vondiqov Q. "O'zbekistonda maktabdan tashqari bolalar tarbiya muassasalarining taraqqiyoti. Diss. K.p.n. Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPI, 1978.-335-49 b.
3. G'afur G'ulom. Asarlar. O'n tomlik. 1-tom... (1923-1940 yy.). Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1970.-b15-b.
4. Haydarova S. Podgotovka uchitelskix kadrov iz chisla vaennix mestnoy nasionalnosti v sovetском Uzbekistane (1917-1945 gg.). Diss. na soisk. uch. st. k.p.n.-Tashkent, 1980. -182 s.
5. Hamza H. N. Asarlar. Ikki tomlik. 1-tom. Toshkent, O'zdavnashr, 1960.-...b. 245-246-b.
6. Xoshimov K., Nishonova M., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanmasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1996.-448 b. 3, 245, 249, 258, 259, 275, 327, 331.
7. "O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. To'plab nashrga tayyorlovchi: Sh.Mansurov. Toshkent, "O'zbekiston", 1993-110 b. 34-b.